

**“Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob” tanlovini
tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob” tanlovi (*keyingi o‘rinlarda – tanlov*) yil davomida fan, adabiyot va nashirlik sohasida samarali faoliyat ko‘rsatib, yoshlar va bolalarning kitob mahsulotlariga bo‘lgan talab-istaklari, qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashga, bilimi va ma’naviyatini boyitishga munosib hissa qo‘shgan, jamoatchilik e’tirofiga sazovor bo‘lgan ijodkorlar hamda nashriyot xodimlarini rag‘batlantirib borishga qaratilgan loyiha hisoblanadi.

2. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil etiladi.

3. Tanlovda O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan, belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan nashirlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar hamda O‘zbekiston Respublikasida rasman nashr etilgan kitob mualliflari ishtirok etishlari mumkin.

Tanlovda mustaqillik davrida nashr etilgan (*yoki qayta nashr etilgan*) kitoblar taqdim etilishi lozim.

4. Respublika ishchi guruhi Tanlov nizomiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vakolatiga ega.

2-bob. Tanlovning maqsad va vazifalari

5. Tanlovni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad – mamlakatimizda bolalar va yoshlar adabiyotini rivojlantirish, kitob mahsulotlari sifatini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish hamda shu sohada jonbozlik ko‘rsatib kelayotgan mutaxassislarni rag‘batlantirishdan iborat.

6. Tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko‘zda tutiladi:

nashriyotlar va mualliflarni mamlakat kitob bozorini yoshlar va bolalar adabiyotiga oid sifatli mahsulotlar bilan boyitish, bolalar va yoshlarning kitob mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish hamda mamlakat nashirlik va matbaa sohasini yuksaltirish yo‘lida birlashtirish;

nashriyotlar va mualliflar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish;

nashirlik va matbaa sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub’ektlarining ish sifati va unumdorligini oshirish, ular o‘rtasida o‘zaro ilmiy-ijodiy hamkorlik muhitini yaratish;

bolalar va yoshlar adabiyotiga oid kitob mualliflarini, nashirlik va matbaa sohasida mehnat qilayotgan iqtidorli va iste’dodli mutaxassislarni munosib rag‘batlantirish.

3-bob. Tanlov nominatsiyalari

7. Tanlov 3 ta yosh toifasi doirasida (6 yoshgacha, 7-11 yosh, 12-18 yosh) quyidagi asosiy nominatsiyalar bo'yicha o'tkaziladi:

“Eng yaxshi adabiy-badiiy kitob”;

“Eng yaxshi ilmiy-ommabop kitob”.

8. Tanlov doirasida quyidagi qo'shimcha nominatsiyalar ham joriy etiladi:

“Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi tarjima asar” (*o'zbek tiliga tarjima qilingan*);

“Eng yaxshi kitob dizayni”;

“Eng yaxshi muharrirlik ishi”;

“Eng katta adadga ega kitob”.

9. Tanlovga tavsiya etilgan kitoblar nizom talablariga muvofiq kelmagan taqdirda, ekspertlar komissiyasi tomonidan qabul qilinmaydi.

4-bob. Tanlovni tashkil etish tartibi

10. Tanlovni tashkil etish uchun mutaxassislar va jamoatchilik vakillaridan iborat Ekspertlar komissiyasi tuziladi. Ekspertlar komissiyasi tarkibi kamida 15 nafar mutaxassisdan iborat bo'ladi.

11. Tanlovga tavsiya etilgan asarlar har yili 1-oktyabrdan 1-yanvarga qadar belgilangan tartibda qabul qilinadi.

12. Tanlovda ishtirok etishni istagan nashriyot, kitob muallifi yoki kitob mahsulotini tayyorlashda ishtirok etgan mutaxassislar O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligiga ariza hamda 2 dona kitobning asl nusxasini taqdim etadi (tanlovga taqdim etilgan kitoblar qaytarib berilmaydi).

Ekspertlar komissiyasi tanlash jarayonida nomzodlar faoliyatiga oid boshqa qo'shimcha ma'lumotlarni so'rashi mumkin.

13. Tanlovga tavsiya etilgan kitoblar **bir oy davomida** mutaxassislar va jamoatchilik vakillaridan iborat Ekspertlar komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi, muhokama qilinadi va ekspertizadan o'tkaziladi.

Bunda, Ekspertlar komissiyasi tomonidan kitob muallifi va mutaxassislarni baholashda nominatsiya nomidan kelib chiqqan holda, ish sifati, mazmun-mohiyati va badiiy saviyasi, professional yondashuv, originallik, innovatsiyadan foydalanganlikka, shuningdek, kitob yuzasidan jamoatchilik bildirgan munosabatlarga e'tibor qaratiladi hamda ular asosida ishlab chiqilgan baholash mezonlariga muvofiq baholanadi.

5-bob. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

14. Tanlov sovrindorlari har yili aprel oyining birinchi o'n kunligida “Kitobxonlik haftaligi” doirasida tantanali ravishda taqdirlanadi.

15. Tanlovda asosiy nominatsiyalar bo'yicha g'olib deb topilgan kitob mualliflariga (vafot etgan bo'lsa qonuniy vorisiga) statuetka va maxsus diplom, shuningdek:

birinchi o'rin uchun – 100 million so'm;

ikkinchi o'rin uchun – 75 million so'm;

uchinchi o'rin uchun – 50 million so'm mukofot mablag'lari topshiriladi.

16. Tanlovda qo'shimcha nominatsiyalar bo'yicha g'olib deb topilganlarga esdalik sovg'alari, statuetka va maxsus diplom topshiriladi.

6-bob. Tanlovni moliyalashtirish manbalari

17. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq quyidagi xarajatlar Yoshlar ishlari agentligi tomonidan quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

mukofot mablag'larini to'lash bilan bog'liq xarajatlar (2022-yildan boshlab ushbu xarajatlar Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi);

tanlovni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar;

qo'shimcha nominatsiyalar g'oliblari va ekspertlarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar.

18. Tanlov g'oliblarini taqdirlash, tanlovni yuqori saviyada o'tkazish borasida boshqa hamkor tashkilotlar ham o'z mablag'lari hisobidan homiylik qilishlari mumkin.

7-bob. Yakuniy qoidalar

19. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish bilan bog'liq nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.